ZIYOVUDDIN MA'DAN MAYDONINING GEOLOGIK TUZILISHI

Akramova Sayyora Rahmonqul qizi
Jizzax viloyati Baxmal tumani 32-maktabning
geografiya o'qituvchisi
Tel: +99897 916 51 30
https://doi.org/10.5281/zenodo.23319762

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ziyovuddin ma'dan maydonining geologik tuzilishi, stratigrafik tarkibi, magmatizmi va tektonik xususiyatlari hamda ularning ma'danlashuv bilan bog'liqligi yoritilgan. Quyi devonga mansub Katarmay svitasining litologik xususiyatlari, to'rtta kichik svitaga ajralishi va ular o'rtasidagi bosqichma-bosqich o'tish munosabatlari tavsiflangan. Hududda tarqalgan burmali va uzilmali strukturalarning ma'danlashuvni nazorat qilishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Uzilmalar va darzlanish zonalarining ma'danli eritmalar harakati hamda minerallar to'planishi uchun sharoit yaratishdagi roli ko'rib chiqilgan. Geologik omillarni kompleks tahlil qilishning foydali qazilmalarni izlash va istiqbolli uchastkalarni ajratishdagi ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ziyovuddin ma'dan maydoni, geologik tuzilish, stratigrafiya, Katarmay svitasi, quyi devon, litologiya, magmatizm, tektonika, uzilmali strukturalar, ma'danlashuv, foydali qazilmalar.

Ziyovuddin tog'larida ma'danlashuv maydonlari Zarafshon-Oloy va Zarafshon Turkiston strukturaviy-formatsion zonalar chegarasidagi Ziyovuddin tog'larida joylashgan. (2-rasm) Ma'dan maydonini quyi devonning metamorfiklashgan effuziv terrigan yotqiziqlaridan iborat. Mazkur yotqiziklar o'z navbatida assimmetrik tuzilishga ega Katarmay antiklinal strukturasida burmalangan. Burma qanotlari ham o'z navbatida yuqori tartibli boshqa burmalar bilan hamda ko'proq subkenglik yo'nalishdagi turlicha yoshga ega bo'lgan ko'plab uzilmali strukturalar bilan murakkablashgan. Subkenglik yo'nalishida ertatoshko'mir davridan oldin hosil bo'lgan uzilma strukturalar Qoraqo'ton, Qizbibi va Shimoliy deb ataluvchi uchta tarmoqdan iborat Qoraqo'ton teran yer yoriqlari zonasiga birlashadi, zona 30 km masofaga cho'zilgan, kenligi – 3 km, oltin ma'danlashuvining lokalizatsiyasida yetakchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari quyi devon yotqiziqlari ichiga kichikroq o'lchamdagi shtoklar, o'rta va nordon tarkibdagi magmatik tog' jinslari daykalar yorib kirgan. Antiklinal strukturaning shimoliy qanoti yaxshiroq saqlangan janubiy Navro'zali yer yorig'i bilan qirqilgan va mezakaynozayning kuchsiz dislokatsiyalangan yotqiziqlari bilan qoplangan.[1]

Kon to'laligicha, bir-biridan ajralgan alohida ma'dan tanalari, ma'dan nishonalari subkenglik yo'nalishiga tik yotuvchi Qoraqo'ton teran yer yoriqlari zonasi hududidagi Katarmay antiklinalining shimoliy qanotida joylashgan. Oltinning sanoat darajasidagi uyumlari Qoraqo'ton teran yer yoriqlari zonasining Qizbibi tarmog'ida kamroq miqdorlarda Qoraqo'ton tarmog'ida va eng kam ko'rsatkichli oltin mineralizatsiyasi shimoliy tarmog'ida kuzatiladi.

Ma'dan maydoni hududida quyi devonning katarmay svitasi (D_1kt) yotqiziqlari tarqalgan. V.S. Korsakov va N.V.Mushkin ma'lumotlariga ko'ra

mazkur yotqiziqlar geosinklinal chetidagi vulkanogen botiqliklar va strukturalar vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan olivin-bazaltli assotsiatsiyaga mansubdir. Bunda ko‘p hollarda vulkanogen tanalar o‘zini qamrovchi tog‘ jinslari bilan muvofiq yotadi, chuqurlikka tomon esa ular yagona vulkanogen strukturaga birlashadi.

Stratig**rafiyasi** Katarmay svitasi litologik xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan asta-sekin o‘tish xarakteriga ega bo‘lgan 4 ta kichik svitaga ajraladi.

I kichik svita **(D_1kt_1)** terrigan-vulkanogen tog‘ jinslaridan iborat bo‘lib, slyuda-dala shpati-kvarsli slaneslar, marmarlar dolomitlar, ohaktoshlar va kremniyli tog‘ jinslarini qatlamchalari va linzalarini qamragan bazalt tarkibli aglomeratli tuflardan tarkib topgan. Kichik svita qalinligi 600 m dan ortiq. Metabazitlar qatlamchalari (qalinligi – 14,0 m dan 80,0 m gacha) kesmada yaxshi ajralib turuvchi va o‘nlab va yuzlab m largacha cho‘zilgan slaneslashgan to‘q yashil tusdagi yo‘l-yo‘l strukturali tog‘ jinslaridan iborat. Metabazitlarning slaneslar bilan chegarasi asta-sekin o‘tish xarakteriga ega, cho‘kindi va vulkanogen tog‘ jinslarining yupqa qatlamlari almashinib yotadi. Metabazitlarning asosiy massasi Katarmay antiklinalining yadrosida kenglik yo‘nalishida cho‘zilib yotuvchi ingichka polosalar shaklida ochilib yotadi.

II kichik svita **(D_1kt_2)** metabazit qatlamchalarini qamragan to‘q-kulrang tusdagi kristallangan slaneslardan, karbonatli jinslardan va kvarslardan iborat. Tog‘ jinslari anchagina darajada kvarslashgan, bu holat kvars uyalari va polosalari ko‘rinishida namoyon bo‘lgan va qatlamlanishi bo‘yicha yo‘nalgan. Kvarsitlar va karbonatli tog‘ jinslari (marmarlashgan dolomitlar va ohaktoshlar) qatlamchalari bir necha o‘nlab va yuzlab m gacha cho‘zilgan holida 0,1 m dan 20,0 m gacha bo‘lgan qalinlikka ega. Ularning kesma bo‘ylab taqsimlanishi bir tekis emas. Kesmaning quyi qismida alohida qatlamchalar ko‘rinishida bo‘lsa, o‘rta qismida 80-150m gacha cho‘zilgan gorizontlar hosil qiladi, kesma yuqorisida esa dolomitlar va ohaktoshlarning linzasimon gorizontlari shaklida namoyon bo‘ladi. Metabazitlarning umumiy miqdori **I**-kichik svitadagiga qaraganda anchagina kamayadi. Kichik svitaning umumiy ko‘rinarli qalinligi 500 m dan ortiq.

III kichik svita **(D_1kt_3)** yotqiziqlari turlicha tog‘ jinslari vakillaridan iborat. Kichik svita yotqiziqlari ichida uglerodli moddalarga ega bo‘lgan tog‘ jinslarining va yirik bo‘laklarning mavjudligi tavsiflanayotgan geologik hosilalarning o‘ziga xos jihatini tashkil etadi. Kichik svita xossalari subkenglik yo‘nalishidagi keng (3,5 km gacha) polosa shaklida cho‘zilib ma’dan maydonining markaziy qismini egallab yotadi. Karako‘tan teran yer yorig‘i zonasining ta’siri doirasida, ya’ni sanoat ahamiyatiga ega ko‘plab oltin ma’danli tanalar joylashgan zonada oltin oreoli keng tarqalganligi tavsiflanayotgan stratigrafik birlikning o‘ziga xos jihatidir. [2]

Kichik svita notekis metamorfiklashgan va qatlamlanib yotuvchi slyuda-dala shpati–kvarsli, slyuda-kvars-dala shpatili, dala shpati-kvars-slyudali alevrit-gilli glaukofonli slaneslardan, ular qatlamlari orasidagi ohaktoshlar, dolomitlar, qumtoshlar, gravelitlar, konglomeratlarning kichik qalinliklariga ega linzalari va qatlamchalar, bulardan tashqari tuflar, bazalt, olivin-bazalt tarkibli aglomeratli tuflarning qalinligi 200,0 m gacha uzunligi esa dastlabki yuzlab m lardan 10 km va undan ham kattaroq masofagacha cho‘zilgan qatlamchalari va linzalaridan tarkib topgan. Aytib o‘tilgan tog‘ jinslari tavsiflanayotgan kesmaning markaziy qismini egallagan. Kesmaning ko‘ndalangiga ham, yo‘nalishi bo‘yicha ham turlicha mineral tarkibdagi slanes qatlamlarining tez-tez almashinib turishi, yana

shuningdek, metabazit qoplamalari va vulkonagen jinslar linzalari va linzasimon tanalarining notekis harakatlanganligi kuzatiladi. Kichik svitaning umumiy ko‘rinarli qalinligi 2500 m dan ortiq.

IV kichik svita **(D_1kt_4)** yotqiziqlari uchinchi kichik svitaning vulkogen-terrigen hosilalari ustiga yotadi. Kichik svitaning quyi chegarasi uchinchi kichik svita tarkibidagi karbonatli tog‘ jinslari ochilishi yuzasidan o‘tkaziladi. Qizbibi tepaliklar qatori bo‘ylab ham taktonik munosabatga va ham izchil almashinish xarakteriga ega. Kichik svita yotqiziqlari to‘q-kul rang ko‘rinishdagi slyuda-dala shpati –kvarsli , slyuda-kvars-dala shpatili slaneslar va ular ichidagi fillitlar, kremniyli slaneslar, ba’zan gravelitlar, metabazitlar qalamchalaridan iborat. Qatlamchalar qalinligi -0,5 m gacha, metabazitlar qalinligi 20,0m gacha. Kichik svita yotqiziqlarining ko‘rinarli qalinligi 2200 mdan ortiq.

Mezo-kaynozoy yotqiziqlari tog‘ oldi etaklari, past tekisliklarni ishg‘ol qilib paleozoy fundamentining ochilish zonalarini o‘rab yotadi. Tarkibi bo‘yicha esa gillar, alevrolitlar, qumtoshlar, gravelitlar va konglomeratlardan iborat yuqori bo‘r yotqiziqlari kompleksidan tashkil topgan. Paleogen yotqiziqlari ohaktoshli dolomitlar, mergellar, gillar, alevrolitlar va qumtoshlardan tashkil topgan. Bo‘r va paleogen yotqiziqlarining umumiy qalinligi – 150 m ga yetadi. To‘rtlamchi yotqiziqlar vaqtincha oqar suvlar o‘zanlari (jilg‘alar) va uncha tik bo‘lmagan tepaliklar yon bag‘irlarida kuzatiladi. Yotqiziqlar asosan alyuvial, delyuvial, prolyuvial va kollyuvial xossalaridan iborat. Tog‘lar etaklari va yon bag‘irlardan to‘rtlamchi yotqiziqlar qalinligi dastlabki metrlarga yetsa, vaqtincha oqar suvlar vodiylarda va jilg‘alarda ular qalinligi 10-15 m gacha yetishi mumkin. [3]

Xulosa Ziyovuddin tog‘laridagi ma’danlashuv maydonlarining geologik tuzilishini o‘rganishda hududning stratigrafiyasi, magmatizmi, tektonik xususiyatlari va foydali qazilmalarining tarqalish qonuniyatlari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinadi. Ushbu yo‘nalishlar tog‘ jinslarining shakllanish ketma-ketligini, ularning keyingi geologik o‘zgarishlarini hamda ma’danlashuvni nazorat qiluvchi omillarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Hududning stratigrafik tuzilishida quyi devonga mansub Katarmay svitasi yotqiziqlari ajratiladi. Katarmay svitasi litologik xususiyatlariga ko‘ra to‘rtta kichik svitaga — D_1kt_1, D_1kt_2, D_1kt_3 va D_1kt_4 ga bo‘linadi. Mazkur kichik svitalar o‘rtasidagi chegaralar bir-biriga asta-sekin o‘tish xususiyati bilan tavsiflanadi. Bunday o‘tishlar cho‘kindi to‘planish sharoitlarining bosqichma-bosqich o‘zgarganini talqin qilishga asos bo‘ladi. Kichik svitalarni ajratishda tog‘ jinslarining tarkibi, qatlamlanish xususiyatlari va kesimdagi o‘zaro munosabatlarini hisobga olish zarur. Litologik farqlarni o‘rganish esa ma’danlashuv uchun qulay bo‘lgan qatlamlar va ularning tutashish zonalarini belgilashga xizmat qiladi.

Magmatizmning ma’danlashuvdagi ahamiyati magmatik jinslarning tarkibi, yoshi, tarqalishi va atrofdagi jinslar bilan munosabatlarini o‘rganish orqali baholanadi. Umumiy geologik nuqtai nazardan, magmatik jarayonlar issiqlik va gidrotermal eritmalar manbai bo‘lishi, shuningdek, yondash jinslarning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq Ziyovuddin tog‘laridagi muayyan ma’danlashuvning magmatizm bilan genetik bog‘liqligini asoslash uchun dala kuzatuvlari, petrografik, geokimyoviy va geoxronologik ma’lumotlarni birgalikda tahlil qilish talab etiladi. Uzilmalarning kesishish uchastkalari, kuchli darzlangan jinslar va turli litologik qatlamlar tutashgan zonalar ma’danli moddalarning to‘planishi uchun ehtimoliy qulay uchastkalar sifatida baholanishi mumkin. Bunday uchastkalarda eritmalar

harakati va ularning yondash jinslar bilan o‘zaro ta’siri minerallarning cho‘kishiga sharoit yaratishi mumkin. Biroq har bir uzilma ma’danlashuv bilan bog‘liq bo‘lavermaydi; uning ma’dan nazorat qiluvchi ahamiyati minerallashuv belgilari, jinslardagi o‘zgarishlar va namuna tahlillari asosida tasdiqlanishi lozim.

Shunday qilib, Ziyovuddin tog‘laridagi ma’danlashuv maydonlarini baholashda stratigrafik, litologik, magmatik va tektonik ma’lumotlarni kompleks o‘rganish asosiy o‘rin tutadi. Ayniqsa, Katarmay svitasining ichki tuzilishi hamda uzilmali strukturalarning tarqalishini birgalikda tahlil qilish foydali qazilmalarni izlash uchun istiqbolli uchastkalarni ajratish va geologik qidiruv ishlarini maqsadli yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gorev G.V. Ziyovuddin tog‘ida oltin izlov va izlash-baholash ishlari natijalari haqida hisobot. Samarqand, 1974
2. Oranskiy N.I. Zirabuloq-Ziaetdin tog‘ining 1:50000 masshtabli gravirazvedka ishlari natijalariga binoan chuqur geologik tuzilishi. Samarqand, 1969
3. Xolopov A.P. Karakutan PRP ning 1960-1961 yillardagi kidiruv-razvedka ishlari natijalari bo‘yicha hisobot